

IQLIM MIGRANTLARI VA QOCHQINLAR: HUQUQIY CHEGARALAR VA FARQLAR

Radjabova Shoxsanamxon Tolibjon qizi
Toshkent davlat yuridik universiteti
mustaqil izlanuvchisi
radjabovashohsanam@gmail.com

Аннотация

Ushbu maqola xalqaro huquqda iqlim migrantlari va qochqinlar o'rtasidagi huquqiy chegaralar va farqlarni tahlil qiladi. 1951-yilgi Qochoqlar maqomi to'g'risidagi Jeneva Konvensiyasining cheklangan qo'llanish doirasi, iqlim tufayli ko'chish hodisasining o'ziga xos xususiyatlari va iqlim migrantlarini huquqiy jihatdan himoya qilish bo'yicha mavjud bo'shliqlar ko'rib chiqiladi. "Teitiota v. New Zealand (2020)" ishi tahlili asosida non-refoulement printsiplining iqlim kontekstida kengaytirilishi masalasi o'rganiladi. Xulosa sifatida iqlim migrantlari uchun alohida xalqaro huquqiy maqom zarurligini asoslovchi tavsiyalar taklif etiladi.

Kalit so'zlar: iqlim migrantlari, qochqinlar, 1951-yilgi Qochoqlar maqomi to'g'risidagi Jeneva Konvensiyasi, non-refoulement, xalqaro huquq, iqlim o'zgarishi, Teitiota ishi.

Аннотация

Данная статья анализирует правовые границы и различия между климатическими мигрантами и беженцами в международном праве. Рассматриваются ограниченная сфера применения Конвенции о статусе беженцев 1951 года, особенности климатического перемещения и существующие пробелы в правовой защите климатических мигрантов. На основе анализа дела Teitiota v. New Zealand (2020) исследуется вопрос расширения принципа non-refoulement в климатическом контексте. В заключение предлагаются рекомендации, обосновывающие необходимость отдельного международно-правового статуса для климатических мигрантов.

Ключевые слова: климатические мигранты, беженцы, Женевская конвенция 1951 года о статусе беженцев, non-refoulement, международное право, изменение климата, дело Тейтиота.

Abstract

This article analyses the legal boundaries and distinctions between climate migrants and refugees in international law. It examines the limited scope of the 1951 Geneva Convention Relating to the Status of Refugees, the unique characteristics of climate-induced displacement, and existing gaps in the legal protection of climate migrants. Drawing on an analysis of Teitiota v. New Zealand (2020), the article explores the extension of the non-refoulement principle in the climate context. Recommendations are proposed substantiating the need for a distinct international legal status for climate migrants.

Keywords: Climate migrants, refugees, 1951 Geneva Convention Relating to the Status of Refugees, non-refoulement, international law, climate change, Teitiota case.

XXI asrda iqlim o'zgarishi nafaqat ekologik, balki chuqur ijtimoiy va huquqiy inqirozga aylanib bormoqda. Xalqaro iqlim ekspertlari guruhi (IPCC) ning 2022 yildagi oltinchi baholash hisobotiga ko'ra, iqlim o'zgarishi tufayli 2050 yilga qadar 216 milliongacha odam o'z mamlakatida ichki ko'chishga majbur bo'lishi mumkin, bu esa tarixdagi eng yirik majburiy ko'chish to'liqlaridan birini yuzaga keltirishi ehtimoldan xoli emas [1].

Biroq bu millionlab odamning huquqiy holati hali ham aniqlanmagan. Xalqaro huquqdagi asosiy himoya vositasi – 1951-yilgi Qochoqlar maqomi to'g'risidagi Jeneva Konvensiyasi bo'lib, iqlim tufayli ko'chib ketishga majbur bo'lganlar himoya doirasiga kirmaydi. Shu sababli “iqlim migranti” va “qochqin” o'rtasidagi huquqiy chegara masalasi zamonaviy xalqaro huquqning eng dolzarb muammolaridan biriga aylangan. François Gemennening ta'kidlashicha, bu farq nafaqat akademik, balki amaliy siyosiy ahamiyatga ega: “qochqin” atamasi himoya majburiyatini ko'zda tutsa, “migrant” atamasi bu majburiyatni anglatmaydi [2].

Markaziy Osiyo mintaqasi uchun bu muammo ayniqsa keskin sanaladi: Orol dengizining qurib borishi, Sirdaryo va Amudaryo havzasidagi suv tanqisligi, cho'llanish jarayonlari allaqachon yuz minglab odamni ko'chishga majbur qilgan yoki shunday xavf ostiga qo'ygan. Shunga qaramay, bu odamlarning huquqiy maqomi noaniqligi sababli ular maxsus himoyadan mahrum. Ushbu maqolada iqlim migrantlari va qochqinlar o'rtasidagi huquqiy chegaralar va farqlar tahlil qilinib, mavjud bo'shliqlarni bartaraf etish yo'llari ko'rib chiqiladi.

1951-yilgi Qochoqlar maqomi to'g'risidagi Jeneva Konvensiyasi va uning 1967-yilgi Protokoli zamonaviy xalqaro qochqinlar huquqining asosini tashkil etadi. Konvensiyaning 1A(2)-moddasi qochqinni besh ta sababdan biri – irq, din, millat, muayyan ijtimoiy guruhga mansublik yoki siyosiy qarashlar asosida ta'qib qilish xavfi tufayli mamlakatini tark etishga majbur bo'lgan shaxs sifatida ta'riflaydi[3].

Bu ta'rifning uchta muhim elementi mavjud: birinchidan, davlat yoki davlatga nisbat beriladigan shaxslar tomonidan ta'qib; ikkinchidan, yuqoridagi besh sababdan biri bilan bog'liqlik; uchinchidan, chegara oshib o'tish, ya'ni boshqa mamlakat hududida bo'lish.

Iqlim migratsiyasi bu uch elementning hech biriga to'liq mos kelmaydi. Birinchidan, iqlim o'zgarishi garchi u siyosiy qarorlar natijasida kuchaygan bo'lsa ham to'g'ridan-to'g'ri davlat ta'qibi hisoblanmaydi. Ikkinchidan, iqlim tufayli ko'chish besh sababdan biriga kirmaydi. Uchinchidan, ko'p hollarda iqlim tufayli ko'chish ichki ko'chish shaklida ro'y beradi, ya'ni shaxs o'z mamlakati ichida ko'chadi. Jane McAdamning fundamental tadqiqotida ta'kidlanishicha, 1951-yilgi Qochoqlar maqomi to'g'risidagi Jeneva Konvensiyasi Ikkinchi Jahon urushidan keyingi vaziyat uchun mo'ljallangan bo'lib, iqlim migratsiyasini nazarda tutmagan va uni kengaytirish siyosiy jihatdan deyarli mumkin ema[4].

Shunday bo'lsa-da, bir qator davlatlarning sud va ma'muriy organlari iqlim sabablari tufayli qochqin maqomiga da'vo qilgan ishlarda “kreativ talqin” yo'lini tutmoqda. Masalan, Yangi Zelandiya Immigratsiya va Himoya Tribunali 2013–2015 yillarda Tuvaludan kelgan bir nechta arizalarni ko'rib chiqdi. Tribunal “muayyan ijtimoiy guruh” mezonini kengaytirib, iqlim sabablari tufayli ta'sirlangan aholigarni himoya qilish imkoniyatini tekshirdi, biroq oxir-oqibat bu yondashuvni yetarli deb topmadi[5].

Xalqaro Migratsiya Tashkiloti (IOM) 2008-yilgi yondashuvida iqlim migrantini “iqlim o'zgarishi va ekologik degradatsiya (sekin yoki to'satdan boshlanadigan) tufayli o'z yashash joyidan ko'chishga majbur bo'lgan yoki ko'chishni tanlagan shaxs” deb ta'riflagan. Biroq bu ta'rif huquqiy majburiyat

yaratmaydi va turli xalqaro hujjatlarda turlicha atamalar qo'llanilmoqda: "ekologik qochqin", "iqlim ko'chkini", "ekologik migrant", "atrof-muhit tufayli ko'chgan shaxs".

Iqlim migratsiyasining asosiy ikki turi ko'chish tezligiga qarab ajratiladi. Birinchisi, sekin boshlanadigan hodisalar (slow-onset events) tufayli ko'chish: dengiz sathining ko'tarilishi, cho'llanish, qurg'oqchilik. Bu tur Markaziy Osiyoda, ayniqsa Orol dengizi inqirozida eng ko'p uchraydi. Ikkinchisi, to'satdan boshlanadigan ekstremal hodisalar (rapid-onset events) tufayli ko'chish: sel, ko'chki, siklon. Qiyosiy huquqshunos Walter Kälinning tahlilida "sekin boshlanadigan hodisalar" majburiy ko'chish sifatida baholash uchun eng qiyin kategoriya ekanligini ta'kidlaydi, chunki ko'chish jarayoni uzoq vaqt davom etib, turli omillar bilan aralashib ketadi[6].

Iqlim migratsiyasining majburiy yoki ixtiyoriy xarakteri masalasi ham bahsliligicha qolmoqda. Richard Black va hammuallif tadqiqotchilarning tahlilida iqlim migratsiyasi "sof ixtiyoriy" va "sof majburiy" qutblar orasidagi "kulrang zona"da joylashganligi ta'kidlanadi. Masalan, Orol dengizi atrofida aholi ko'chishi suv tanqisligi, qishloq xo'jaligining inqirozga uchrashi va sog'liq muammolarining bir vaqtda ta'siri natijasida sodir bo'lmoqda. Bu holat ko'chishni "ixtiyoriy" deb baholashni qiyinlashtiradi, biroq "majburiy ta'qib" mezoniga ham mos kelmaydi[7].

Iqlim migrantlari va qochqinlar o'rtasidagi asosiy huquqiy farqlarni beshta mezon bo'yicha ko'rib chiqish maqsadga muvofiq.

Ta'qib sababi. Qochqinlar davlat yoki davlatga bog'liq shaxslar tomonidan to'g'ridan-to'g'ri ta'qib qilinadi. Iqlim migranti esa tabiat kuchlari tufayli ko'chishga majbur bo'ladi. Biroq bu chegara tobora xiralashmoqda: davlatlarning iqlim o'zgarishiga nisbatan harakatsizligi masalan, emissiyalarni kamaytirishdan bosh tortishi iqlim migratsiyasiga bevosita hissa qo'shadi.

Himoya maqomi. Qochqin 1951-yilgi Qochoqlar maqomi to'g'risidagi Jeneva Konvensiyasi asosida rasmiy maqomga ega bo'lib, non-refoulement, hujjat olish, ijtimoiy xizmatlar kabi kafolatlarga ega. Iqlim migranti esa bunday rasmiy maqomdan mahrum – mavjud huquqiy tizimda u oddiy iqtisodiy migrant sifatida ko'riladi.

Ko'chish xarakteri. Qochqin ko'pincha tezda va to'satdan ko'chishga majbur bo'ladi, ya'ni ta'qib xavfi tug'ilganda. Iqlim ko'chishi esa ko'pincha uzoq, bosqichma-bosqich jarayon bo'lib, sabablarni bir-biridan ajratish qiyin.

Chegara oshib o'tish. Konvensiya faqat boshqa davlat hududida bo'lgan shaxslarni qamraydi. Iqlim migratsiyasining katta qismi esa ichki ko'chish shaklida, ya'ni mamlakat ichida ro'y beradi.

Davlat mas'uliyati. Qochqin bo'yicha qabul qiluvchi davlatning majburiyatlari Konvensiya bilan aniq belgilangan. Iqlim migranti bo'yicha esa qabul qiluvchi davlat, kelib chiquvchi davlat va global iqlim inqiroziga hissa qo'shgan davlatlar o'rtasida mas'uliyat taqsimoti umuman belgilanmagan.

Bu beshta farqdan ko'rinadiki, iqlim migratsiyasini mavjud qochqinlar huquqi tizimiga «sig'dirish» urinishi mohiyatni buzadi. Bu holat Linos-Alexandre Sicilianosning xalqaro javobgarlik sohasidagi xulosasiga o'xshash: "yangi huquqiy hodisalar uchun yangi normativ ramkalar zarur; mavjud tushunchalarni majburiy kengaytirish ularni zaiflashtiradi"[8].

2020-yil 7-yanvarda BMT Inson huquqlari qo'mitasi (HRC) Ioane Teitiota v. New Zealand ishi bo'yicha tarixiy qaror qabul qildi. Teitiota Yangi Zelandiyaga Kiribatidan kelgan fuqaro bo'lib, o'z orolining iqlim o'zgarishi tufayli suv ostiga ketishi xavfini sabab ko'rsatib qochqin maqomini so'ragan edi. Yangi Zelandiya sudlari bu da'voni rad etgan edi. BMT HRC esa birinchi marta rasmiy ravishda e'lon qildiki: iqlim o'zgarishi tufayli hayotga xavf tug'dilsa, qaytarib yuborish Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi paktning (ICCPR) 6-moddasi – yashash huquqini buzishi mumkin[9].

Ushbu qarorning huquqiy ahamiyati bir necha jihatdan namoyon bo'ladi. Birinchidan, qo'mita birinchi marta iqlim o'zgarishi natijasida yaratilgan hayotga xavfni ICCPR 6-moddasining himoya doirasiga kiritdi. Ikkinchidan, non-refoulement prinsipi, ya'ni hayotiga xavf tug'diradigan mamlakatga qaytarmaslik iqlim kontekstida ham qo'llanilishi mumkinligini tan oldi. Uchinchidan, qaror "imminence", ya'ni xavfning yaqinligi mezonini belgiladi: agar xavf yaqin bo'lmasa, qaytarish hozircha joiz deb topilishi mumkin. O'sha ish bo'yicha Kiribat hali yashash uchun yaroqliligi to'liq yo'qolmaganligi sababli Teitiota da'vosi rad etildi[10].

Teitiota qarorining cheklovlari ham muhim. Qaror iqlim migrantlari uchun yangi rasmiy maqom yaratmadi, u faqat ICCPR 6-moddasi doirasida individual holatda himoya imkoniyatini tan oldi. Shu sababli, McAdamning ta'biri bilan aytganda, bu qaror "huquq rivojlanishining dastlabki bosqichi" bo'lib, kelajakda yanada muhimroq qarorlar uchun zamin hozirlaydi. Bundan tashqari, qaror faqat Yangi Zelandiya uchun majburiy bo'lib, garchi u kuchli xalqaro presedent bo'lib xizmat qilsa-da, boshqa davlatlar uchun bevosita majburiy kuchga ega emas.

5. Mavjud huquqiy bo'shliqlar va ularni bartaraf etish yo'llari. Iqlim migrantlari va qochqinlar o'rtasidagi huquqiy farqlar tahlilidan to'rtta asosiy huquqiy bo'shliq aniqlanadi.

Birinchi bo'shliq – ta'rif bo'shlig'i. Xalqaro huquqda "iqlim migrant" uchun hech qanday majburiy, umumqabul qilingan ta'rif mavjud emas. Bu holat turli davlatlarning turlicha talqin qilishiga va iqlim migrantlarining himoyasizligiga olib keladi. Walter Kälinning Nansen Printsipilariga asoslangan yondashuvda minimal ta'rif sifatida: "iqlim o'zgarishi yoki ekologik degradatsiya tufayli o'z doimiy yashash joyini tark etishga majbur bo'lgan yoki ko'chish xavfi ostida bo'lgan shaxs" formulasi taklif qilingan[11].

Ikkinchi bo'shliq – maqom bo'shlig'i. Iqlim migranti uchun rasmiy xalqaro huquqiy maqom, ya'ni qabul qiluvchi davlat uchun aniq majburiyatlar to'plami mavjud emas. Nansen Tashabbusi (2012–2015) va Global Compact for Migration (2018) muhim qadamlar bo'lsa-da, ular majburiy emas. Bu bo'shliqni to'ldirish uchun yangi xalqaro konvensiya yoki mavjud 1951-yilgi Qochoqlar maqomi to'g'risidagi Jeneva Konvensiyasiga qo'shimcha protokol qabul qilish zarur.

Uchinchi bo'shliq – mas'uliyat bo'shlig'i. Iqlim migrantlarini qabul qilish uchun kim mas'ul ekanligini belgilovchi xalqaro mexanizm yo'q. Bu bo'shliq ayniqsa mintaqaviy kontekstda, masalan, Markaziy Osiyoda keskin ko'rinadi: Orol dengizi inqirozi tufayli ko'chib ketganlar na kelib chiqqan davlatdan, na qabul qiluvchi davlatdan, na global iqlim inqirozining asoschilari bo'lgan rivojlangan davlatlardan alohida yordam olmaydi.

To'rtinchi bo'shliq – non-refoulement bo'shlig'i. Teitiota qaroriga qaramay, iqlim kontekstida non-refoulement prinsipi qachon va qanday sharoitda qo'llanilishi hali aniq belgilanmagan. "Yaqin xavf" mezoni subyektiv va har bir ish uchun alohida baholanishi zarur, bu esa amaliyotda katta noaniqlikka olib keladi. UNHCRning 2020-yilgi huquqiy ko'rsatmasi bu masalada dastlabki aniqlikni bersa-da, u ham majburiy emas[12].

Ushbu to'rtta bo'shliqni bartaraf etish uchun quyidagi uch yo'nalish tavsiya etiladi: (1) Global darajada iqlim migrantlarini qamrab oluvchi yangi xalqaro konvensiya tuzish yoki 1951-yilgi Qochoqlar maqomi to'g'risidagi Jeneva Konvensiyasiga iqlim klauzelasini qo'shuvchi protokol qabul qilish; (2) Mintaqaviy darajada Markaziy Osiyo uchun iqlim migratsiyasi bo'yicha mintaqaviy konvensiya tuzish (IFAS yoki SCO doirasida); (3) Milliy darajada O'zbekiston kabi ta'sirlangan davlatlar uchun iqlim migranti ta'rifini milliy qonunchiligiga kiritish va Teitiota presidentiga asoslanib non-refoulement kafolatlarini kengaytirish.

Markaziy Osiyo iqlim migratsiyasi sohasi qo'llanilayotgan yondashuvlarni qo'shimcha sinash uchun amaliy poligon bo'lib xizmat qiladi. Orol dengizi inqirozi dunyodagi eng yirik iqlim-ekologik falokatlardan biri sifatida e'tirof etilgan bo'lib, iqlim migrantlari va qochqinlar o'rtasidagi chegarani test qilish imkonini beradi.

Orol dengizi havzasidan minglab ko'chib ketgan shaxs yuqoridagi ta'riflar bo'yicha qanday baholanadi? Birinchidan, ular 1951-yilgi Qochoqlar maqomi to'g'risidagi Jeneva Konvensiyasi bo'yicha qochqin hisoblanmaydi, ular ta'qib qilinmagan va besh sababdan birortasi yo'q. Ikkinchidan, ular IOM ta'rifi bo'yicha «iqlim migranti» hisoblanadi: ekologik degradatsiya tufayli ko'chishga majbur bo'lganlar. Uchinchidan, ular ko'pincha ichki ko'chkinchi, ya'ni O'zbekiston ichida ko'chib ketgan shaxslar sifatida baholanishi lozim. BMT Bosh ko'rsatmalari (Guiding Principles on Internal Displacement)ning 5-prinsipi ekologik sabablar tufayli ko'chkinchilarga qo'llanilishi mumkin, biroq bu ham majburiy emas[13].

Shu sababli, Markaziy Osiyo davlatlari, ayniqsa O'zbekiston uchun milliy qonunchiligiga "iqlim migrant" ta'rifini kiritish va ular uchun minimal huquqlar to'plamini belgilash dolzarb amaliy zarurat hisoblanadi. Bu chora iqlim tufayli ko'chib ketganlarning insoniy qadr-qimmatini himoya qilish bilan birga, O'zbekistonning xalqaro iqlim muzokaralarida yanada kuchli va argumentlangan pozitsiyadan harakat qilishiga imkon beradi.

Xulosa qilib aytganda, birinchidan, 1951-yilgi Qochoqlar maqomi to'g'risidagi Jeneva Konvensiyasi iqlim migrantlarini o'z himoya doirasiga kirmaydi va uni kengaytirish siyosiy jihatdan qiyin. Iqlim migratsiyasining xususiyatlari: tabiat kuchlari tufayli ko'chish, ko'pincha ichki xarakter kasb etishi, sekin va bosqichma-bosqich jarayon bo'lishi mavjud ta'rif doirasiga to'g'ri kelmaydi.

Ikkinchidan, Teitiota v. New Zealand (2020) qaror xalqaro huquqda iqlim migratsiyasini tan olish yo'lidagi muhim birinchi qadam bo'lib, non-refoulement prinsipi iqlim kontekstida ham qo'llanilishi mumkinligini belgiladi. Biroq bu qaror yangi rasmiy maqom yaratmadi va uning chegaralari hali to'liq aniqlanmagan.

Uchinchidan, xalqaro huquqda to'rtta asosiy bo'shliq mavjud: ta'rif, maqom, mas'uliyat va non-refoulement bo'shliqlari. Bu bo'shliqlarni bartaraf etish uchun global, mintaqaviy va milliy darajadagi harakatlar zarur.

To'rtinchidan, Markaziy Osiyo, ayniqsa Orol dengizi inqirozi misolida iqlim migratsiyasi masalasining amaliy jihatdan qanchalik dolzarb ekanligini ko'rsatib turibdi. O'zbekiston uchun milliy qonunchiligiga "iqlim migrant" ta'rifini kiritish va ular uchun minimal huquqiy kafolatlar belgilash eng muhim va zudlik bilan amalga oshirilishi lozim bo'lgan chora hisoblanadi.

Umuman olganda, iqlim migrantlari va qochqinlar o'rtasidagi huquqiy chegara masalasi zamonaviy xalqaro huquqning eng muhim yechilmagan muammolaridan biri bo'lib qolmoqda. Bu muammoni hal etish siyosiy irodani, xalqaro hamkorlikni va ijodiy huquqiy yondashuvlarni talab qiladi. Kechiktirilgan har bir yil yanada ko'proq odamning huquqiy himoyasiz qolishiga olib keladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. IPCC. Sixth Assessment Report (AR6). Climate Change 2022: Impacts, Adaptation and Vulnerability. — Cambridge: Cambridge University Press, 2022.
2. Gemenne F. Why the Numbers Don't Add Up: A Review of Estimates and Predictions of People Displaced by Environmental Changes // Global Environmental Change. — 2011. — Vol. 21, Suppl. 1. — P. S41–S49.
3. Convention Relating to the Status of Refugees, 28 July 1951. — UNTS Vol. 189. — P. 137.
4. McAdam J. Climate Change, Forced Migration, and International Law. — Oxford: Oxford University Press, 2012. — 296 p.
5. Immigration and Protection Tribunal New Zealand. AF (Kiribati) [2013] NZIPT 800413. — 25 June 2013.
6. Kälin W., Schrepfer N. Protecting People Crossing Borders in the Context of Climate Change. UNHCR Legal and Protection Policy Research Series. — Geneva: UNHCR, 2012.
7. Black R. et al. The Effect of Environmental Change on Human Migration // Global Environmental Change. — 2011. — Vol. 21, Suppl. 1. — P. S3–S11.
8. Sicilianos L.-A. The Classification of Obligations and the Multilateral Dimension of the Relations of International Responsibility // European Journal of International Law. — 2002. — Vol. 13, No. 5. — P. 1127–1145.
9. UN Human Rights Committee. *Ioane Teitiota v. New Zealand*. CCPR/C/127/D/2728/2016. — 7 January 2020.
10. *Teitiota v. New Zealand*. Op. cit. — para. 9.11.
11. Kälin W., Schrepfer N. Op. cit. — P. 18.
12. UNHCR. Legal Considerations Regarding Claims for International Protection Made in the Context of the Adverse Effects of Climate Change. — Geneva: UNHCR, 2020.
13. UN Guiding Principles on Internal Displacement. UN Doc. E/CN.4/1998/53/Add.2. — 11 February 1998.